



## SUD TIZIMIDA SUN'iy INTELLEKTNI JORIY QILISHDA XORIJ DAVLATLARINING TAJRIBALARI

Kenjayeva Nasiba Maqsud qizi

Buxoro davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Mirzayeva Mushtariy Axmad qizi

Buxoro davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi zamонавиу техника har tomonlama rivojlanib yangiliklarni yaratayotgan dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida so'z boradi.Inson tomonidan yaratilgan Sun'iy intellekt tizimi bugungi kunda hayotimizning bir bo'lagiga aylanishga ulgurdi.Sun'iy intellektni hayotimizning turli jabhalarida ko'rishimiz mumkin ilm-fan,san'at,algorotimlar va kundalik hayotimizda bizga kerak bo'ladiга informatsiyalarni bizga yetkazib berish uchun bu tizimdan keng foydalanyapmiz.Bu tizimdan nafaqat o'z extoyojlarimiz uchun balkida davlatda chiqarilayotgan qonunlarni tahlil qilishda ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ham keng foydalanib kelyapmiz.Ularning biri sud tizimidir bu maqola xorij davlatlari sud tizimida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan qay darajada keng qamrovda foydalanayotganlari haqidagi mavzuni to'liq yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellektdan sud tizimida foydalanishda yetakchi bo'lgan davlatlar,ularning tajribalari,va sud tizimida foydalanishdagi qulayliklar.

**Abstract:** This article talks about the changes taking place in the world where today's modern technology is developing in every way and creating innovations. The artificial intelligence system created by man has managed to become a part of our life today. We can see artificial intelligence in various aspects of our life. We are using this system widely to deliver the information we need in science, art, algorithms and in our daily life. in fact, we are widely using it in the analysis of the laws issued in the country and in the activities of law enforcement agencies. One of them is the judicial system.

**Key words:** Countries that are leaders in the use of artificial intelligence in the judicial system, their experiences, and the convenience of using it in the judicial system.

### KIRISH

Sud tizimida sun'iy intellektdan foydalanish xalqaro miqyosda tobora rivojlanib boryapti.Sun'iy intellekt tufayli biz bugungi kunda sud jarayonlarini to'laqonli avtomatlashtirish,adolatni ta'minlash va sud tizimidagi jarayonlarni tezlashtirish uchun uning imkoniyatlaridan keng foydalanyapmiz.Xorij tajribalarini o'rganar ekanmiz avvalon bor sun'iy intellekt tizimidan keng qamrovda foydalanuvchi va yetakchi davlat bo'lgan AQSHning tajribalarini o'rganishimiz kerak sun'iy intellektdan foydalanuvchi davlatlar ro'yxatida AQSH yetakchilik qilyapti statistik ma'lumotlarga qaraganda 2026-yilga kelib sun'iy intellekt maydoni 299,64 milliard dollarga baholanadi.AQSH sud qarorlarini tahlil qilish va tavsiyalar berishda COMPAS tizimidan foydalanib bu tizim mahbuslarning qayta jinoyat sodir etish xavfini baholash uchun ishlataladi.Sudyalar ushbu tizimdan jazoni belgilashda maslahat sifatida foydalanadi. Huquqiy tahlil vositalari sun'iy intelekt qonunlar

va sud amaliyotlari ma'lumotlarni tahlil qilib, advokatlarga muhim hujjatlarni topishda yordam beradi. ROSS INTELLIGENCE va LexisNexis platformalari advokatlar uchun hujjatlar bilan ishlash jarayonlarini osonlashtiradi.

Xitoyning sud tizimida sun'iy intellektdan foydalanish faoliyati bunda Xitoyda sun'iy intellektni sud tizimida qo'llash faol rivojlanmoqda, chunki davlat ularni yuridik tizimda samaradorlikni oshirish uchun keng qo'llamoqda. Misol uchun ayrim sud jarayonlari kichik ko'lamli fuqarolik nizolari, sun'iy intellekt yordamida hal qilinmoqda. "Internet sudlari" sun'iy intellektga asoslangan bo'lib, foydalanuvchilar onlayn ravishda murojaat qilishlari va nizolarlarni hal qilishlari mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2022/23 yillarda Xitoyda sun'iy intellekt tizimiga xususiy sektordan jalb qilingan investitsiya 95 mlrd dollarni tashkil qilgan. Hukumat ham sun'iy intellekt faoliyatiga faol sarmoya kirityapti. 2027 yilga borib mamlakat hukumati kiritgan sarmoya 38,1 mlrd dollarni, dunyodagi jami investitsiyaning 9 foizini tashkil qilishi kutilyapti.

Estoniya raqamli sudlardan foydalanish tajribalarini sinab ko'rmoqda bunda kichik nizolarni hal qilishda sudyalarga ishlarni avtomatik ko'rib chiqish imkonyatlarini taqdim etmoqda bu esa vaqt va mablag'ni tejashga yordam beradi. Elektron hukumat tizimida sudga murojaat qilish jarayoni sun'iy intellekt orqali avtomatlashtirilgan. Estoniyada sudlar, hukm chiqarishda sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni tahlil qilmoqda. Masalan, o'xshash ishlarni va ilgari chiqarilgan qarorlarni tahlil qilish orqali sudyalar uchun tavsiyalar yaratadigan tizimlar mavjud. Bu, sud qarorlarini tez va aniq chiqarishga yordam beradi, shuningdek, tizimning samaradorligini oshiradi.

Hindistonda sun'iy intellekt ishlari ko'p bo'lgan sudlarda hujjatlarni saralash va ustuvorliklarni belgilash uchun foydalanadi. Supreme Court Al Project Hindiston Oliy sudi sun'iy intellektni sud amaliyotlarini tahlil qilish va sud jarayonlarini qisqartirish uchun hozirda sinovdan o'tkazmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda Hindiston Oliy sudi muhim sud qarorlarini mahalliy tillarga tarjima qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanmoqda 36,000 dan ortiq qaror hind tiliga, 17,000 dan ortig'i ess boshqa 16 mahalliy tilga tarjima qilingan va ular e-SCR portalida mavjud.

Kanada sud tizimida sun'iy intellektdn foydalanish jarayoni ehtiyojkorlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

2022yil Kanadaning Federal sud uchun so'nggi AI siyosatini amalga oshirishning birinchi to'liq yilidir. Bugungi kunga kelib, Kanadada bironta ham bosh suda sudlarda sun'iy intellektdan foydalanishga qat'iy "yo'q" demagan. 2024-yilda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar chiqardi. Bu yo'riqnomalar sud tizimida sun'iy intellekt texnogoliyalaridan foydalanishda shaffoflik, sud mustaqilligi va adolatni ta'minlshga qaratilgan. Kanadaning Yukon va Manitoba viloyatlaridagi sudlarda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish qoidalari haqida ham alohida ko'rsatmalar mavjud bo'lib misol uchun advokatlar va tomonlar sud ishida sun'iy intellekut vositalaridan foydalanganda ular qaysi vositalardan foydalanilganligini va qanday maqsadda qo'llanilganligini sudga bildirishlari talab qilinadi.

Xulosa.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ushbu maqolada xorij davlatlarining tajribalari va ularning sun'iy intellektdan foydalanish statistikasi keltirib o'tildi sun'iy intellekti sud tizimida joriy qilish qaysidir ma'noda yaxshi va foydali bu orqali sudga murojaat qiluvchilarning vaqtini va mablag'lari tejaladi.Qonunlarning aniq va adolatli ishlashini ta'minlaydi sud muhokamasi shaffof va qonuniy bo'lishini sudyalarining korrupsiyon holatlariga chek qo'yishda katta rol o'ynaydi.Lekin sud tizimini to'laqonli sun'iy intellekt tizimiga o'tkazish to'g'ri emasligi haqida ko'pgina davlat mutaxassislari ta'kidlashmoqda sababi sud muhokamasi va uning jarayonlarida inson taqdirini hal qiladi va inson sha'ni qadri qimmati jamiyatda yuksak baholaniladi. Bu omillarni hisobga olgan holda sud tizimida sun'iy intellektning faoliyatini bosqichma bosqich va extiyotkorlik bilan foydalanish kerakligi xulosa qilinadi.

#### FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

theconversation.com/artificial-intelligence  
infocom.uz/new  
uz.blogpascher.com  
<https://zamin.uz>  
<https://www.xabar.uz>  
<https://chatgpt.com/>